

TIBBIYOT



TA'LIMI & INNOVATSIYALARI



- 14.00.00 - Tibbiyot fanlari;
- 14.00.01 - Akusherlik va ginekologiya;
- 14.00.02 - Morfologiya;
- 14.00.03 - Endokrinologiya;
- 14.00.04 - Otorinolarologiya;
- 14.00.05 - Ichki kasalliklar;
- 14.00.06 - Kardiologiya;
- 14.00.07 - Gigena;
- 14.00.08 - Oftal'mologiya;
- 14.00.09 - Pediatriya;
- 14.00.10 - Yuqumli kasalliklar;
- 14.00.11 - Dermatologiya va venerologiya;
- 14.00.12 - Tibbiy reabilitologiya;
- 14.00.13 - Nevrologiya;
- 14.00.14 - Onkologiya;
- 14.00.15 - Patologik anatomiya;
- 14.00.16 - Normal va patologik fiziologiya;
- 14.00.17 - Farmakologiya va klinik farmakologiya;
- 14.00.18 - Psixiatriya va narkologiya;
- 14.00.19 - Klinik radiologiya;
- 14.00.20 - Tibbiy genetika;
- 14.00.21 - Stomatologiya;
- 14.00.22 - Travmatologiya va ortopediya;
- 14.00.23 - Hamshiralik ishini tashkil etish;
- 14.00.24 - Sud tibbiyoti;
- 14.00.27 - Xirurgiya;
- 14.00.28 - Neyroxirurgiya;
- 14.00.41 - Xalq tabobati;
- 14.00.35 - Bolalar xirurgiyasi;
- 14.00.34 - Yurak-qon tomir xirurgiyasi

№2-SON



2025-yil, oktyabr



tibbiyot-talimi-va-innovatsiyalari.uz



https://t.me/tibbiyot_2100

Litsenziya raqami: №745444



Tahrir hay'ati a'zolari:



BOSH MUHARRIR:

Shuhrat Baymuradov Abdujalilovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Iminov Komiljon Odiljonovich
tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

MUHARRIR:

Sherzod Qurbonov

"TIBBIYOT TA'LIMI VA INNOVATSIYALARI"

ilmiy elektron jurnali O'zbekiston
Respublikasi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)
tomonidan 2024-yil
9-oktabrdan boshlab
c-5669651 raqami ostida rasmiy
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Murojaat uchun telefon:

+998 97 748 70 03

Email: @munis_sm



Sharipov Kongratbay Avezimbetovich
Texnika fanlari doktori (DSc), professor



Ishanqulov Artiqboy Eshboyevich
Biologiya fanlari doktori (DSc), professor



Otamuradov Furqat Abdukarimovich
tibbiyot fanlari doktori (DSc), dotsent.



Shuxrat Jumayevich Teshayev
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Oral Aminovna Ataniyazova
tibbiyot fanlari doktori (DSc), professor



Jalolova Feruza Maxamatjanovna

Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa
doktori (DSc), dotsent



Uraqov Shokir Ulashovich

tibbiyot fanlari doktori doktori (DSc)



MUNDARIJA

POSTKOVID BEMORLARDA KAVERNOZ SINUS TROMBOZINING INSULT RIVOJLANISHIDAGI ROLI.....	6
Boymuradov Sh.A., Hayitmurodov D. E., Kurbonov Yo. X., Shakirov A.A.	
YUQORI LAB YUGANCHASI SOHASIDAN OLINGAN ERKIN SHILLIQ QAVATLI TO‘QIMA TRANSPLANTATINI MILK RETSESSIYASINI BARTARAF ETISHDA QO‘LLASH.....	11
Sabirov Elyor Ergashevich, Boymuradov Shuxrat Abdujalilovich	
ДИАГНОСТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ИНТЕРЛЕЙКИНОВ В СЛЮНЕ И СЫВОРОТКЕ КРОВИ ПРИ ПАРОДОНТИТЕ У БОЛЬНЫХ АССОЦИИРОВАННОМ С ЖИРОВОЙ ДИСТРОФИЕЙ ПЕЧЕНИ	16
Ибрагимова Малика Худайбергеновна, Рузикулова Мунира Шухрат кизи	
ОСОБЕННОСТИ ИММУННОГО ОТВЕТА ПРИ СОЧЕТАННЫХ ТРАВМАХ ЛИЦЕВОГО СКЕЛЕТА.....	22
Боймуродов Шухрат Абдужалилович, Нажмиддинов Боходиржон Бахритдин угли	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИНТЕГРАЦИИ ПЕРЕДОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРАКТИКУ КЛИМАКТЕРИЧЕСКОМ ПЕРИОДЕ У ЖЕНЩИН С ОСТЕОПОРОЗОМ ПРИ ПЛАНИРОВАНИИ ДЕНТАЛЬНОЙ ИМПЛАНТАЦИИ В ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВОЙ ХИРУРГИИ.....	28
Ачилова Нодира Ганиевна	
ПРИМЕНЕНИЕ СОЛКОСЕРИЛА ПРИ ДЕНТАЛЬНОЙ ИМПЛАНТАЦИИ У ПАЦИЕНТОВ С РЕВМАТОИДНЫМ АРТРИТОМ В ОСТРОМ ПЕРИОДЕ	33
Сарбоев Эркин Рахимбоевич	
ОБЗОР СОВРЕМЕННЫХ НАВИГАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ДЕНТАЛЬНОЙ ИМПЛАНТОЛОГИИ И ИХ РАЗВИТИЕ В КЛИНИЧЕСКОЙ ПРАКТИКЕ	39
Бобамуратова Д. Т., Ашурова М.У	
КЛИНИЧЕСКИЕ И МОРФОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПОВРЕЖДЕНИЯ ТРОЙНИЧНОГО НЕРВА ПОСЛЕ ДЕНТАЛЬНОЙ ИМПЛАНТАЦИИ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО ВОССТАНОВЛЕНИЯ.....	44
Рузибаев Дилшод Рузиметович	

POSTKOVID BEMORLARDA KAVERNOZ SINUS TROMBOZINING INSULT RIVOJLANISHIDAGI ROLI



Boymuradov Sh.A.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti



Kurbonov Yo. X.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti



Hayitmurodov D. E.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti



Shakirov A.A.

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada postkovid bemorlarda kaverno sinus trombozining ishemik insult rivojlanishidagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, COVID-19 infeksiyasi o'tkazgan bemorlarda qon ivish tizimining buzilishi, endotelial disfunktsiya va giperviskozlik holatlari kuzatilib, bu miya qon aylanishi tizimida tromboz shakllanishini kuchaytiradi. Bosh miya arteriyalari va venoz sinuslarida qon oqimining to'xtashi neyronlarning gipoksiyasi, ishemik shikastlanish va insultga olib keladi. Tadqiqot 2020–2024 yillarda Toshkent Tibbiyot Akademiyasining ko'p tarmoqli klinikasida olib borilib, 204 nafar bemor misolida laborator va instrumental ko'rsatkichlar tahlil qilindi. D-dimer, fibrinogen, CRP, ferritin va leykotsitlar darajasi keskin oshganligi aniqlangan. Tadqiqot natijalari trombozning postkovid holatlarda ishemik insult patogenezidagi muhim o'рни borligini isbotlaydi. Maqolada tromboz va insult rivojlanish mexanizmlari, xavf omillari, profilaktika hamda davolash yondashuvlari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: COVID-19, kaverno sinus trombozi, ishemik insult, D-dimer, fibrinogen, C-reaktiv oqsil, giperviskozlik, miya qon aylanishi, endotelial disfunktsiya, trombolitik terapiya.



Abstract: This study analyzes the role of cavernous sinus thrombosis in the development of ischemic stroke among post-COVID patients. The findings reveal that COVID-19 infection triggers coagulation system hyperactivation, endothelial dysfunction, and blood hyperviscosity, leading to thrombosis in cerebral arteries and venous sinuses. Blood flow obstruction causes neuronal hypoxia and ischemic damage, resulting in stroke. The research was conducted from 2020 to 2024 at the multidisciplinary clinic of the Tashkent Medical Academy, including 204 patients. Laboratory tests demonstrated significant increases in D-dimer, fibrinogen, CRP, ferritin, and leukocyte levels. These results confirm the crucial role of thrombosis in post-COVID ischemic stroke pathogenesis. The article also discusses mechanisms, risk factors, prevention, and therapeutic strategies for managing thrombotic complications.

Key words: COVID-19, cavernous sinus thrombosis, ischemic stroke, D-dimer, fibrinogen, C-reactive protein, hyperviscosity, cerebral circulation, endothelial dysfunction, thrombolytic therapy.

Аннотация: В статье рассматривается роль тромбоза кавернозного синуса в развитии ишемического инсульта у пациентов, перенёсших COVID-19. Согласно полученным данным, коронавирусная инфекция вызывает активацию свёртывающей системы крови, эндотелиальную дисфункцию и гипервязкость, что приводит к формированию тромбов в церебральных артериях и венах. Нарушение мозгового кровообращения приводит к гипоксии нейронов, ишемическим повреждениям и развитию инсульта. Исследование проведено в 2020–2024 гг. на базе многопрофильной клиники Ташкентской медицинской академии с участием 204 пациентов. Установлено значительное повышение уровней D-димера, фибриногена, С-реактивного белка, ферритина и лейкоцитов. Полученные результаты подтверждают ключевую роль тромбоза в патогенезе ишемического инсульта у постковидных больных.

Ключевые слова: COVID-19, тромбоз кавернозного синуса, ишемический инсульт, D-димер, фибриноген, С-реактивный белок, гипервязкость, церебральное кровообращение, эндотелиальная дисфункция, тромболитическая терапия.

KIRISH

Turli ilmiy tadqiqotlar va tibbiy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, insult inson salomatligi uchun eng xavfli patologik holatlardan biri bo'lib, u ko'p hollarda nogironlik, og'ir nevrologik asoratlar va o'limga olib keladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, barcha insultlarning taxminan 85 foizi ishemik insult hisoblanadi, ya'ni bu holatda qon tomirlarining tromboz yoki emboliya natijasida to'silib qolishi sababli miya to'qimalari kislorod tanqisligiga uchraydi. Qon tomirlarida tromb hosil bo'lishi organizmning gemostaz tizimida muvozanatning buzilishi natijasida yuzaga keladi va bu miya qon aylanishini izdan chiqarib, ishemik gipoksiya, neyronlar degeneratsiyasi va to'qimalar nekroziga olib keladi. So'nggi yillarda, ayniqsa, postkovid sindromdan keyin tromboembolik asoratlar sonining ortgani qayd etilmoqda. COVID-19 infeksiyasi trombosit faolligini oshiradi, endotelial disfunktsiyani kuchaytiradi hamda qonning reologik xususiyatlarini o'zgartirib, giperviskoz holatni yuzaga keltiradi. Buning natijasida kavernoza sinus trombozi kabi og'ir asoratlar rivojlanadi va bu o'z navbatida ishemik insultning asosiy patogenetik omillaridan biriga aylanadi. Tromboz miya arteriyalari va venalarida qon oqimini to'xtatib, kislorod hamda oziq moddalarning yetkazilishini buzadi, bu esa neyronlarning nobud bo'lishiga va miya faoliyatining buzilishiga olib keladi. Trombozning rivojlanish mexanizmlari orasida katta arteriyalarda tromb hosil bo'lishi, miya venoz tizimidagi bosim oshishi va yurakdan keluvchi emboliyalar muhim o'rin tutadi. Masalan, ichki uyqu arteriyasi yoki miya bazal arteriyalarining to'silishi natijasida miyaning ayrim sohalarida ishemiya kuzatiladi, yurakda hosil bo'lgan tromblar esa qon oqimi orqali miyaga yetib borib, embolik insultni keltirib chiqaradi. COVID-19 bilan og'rikan bemorlarda bu holat yanada tezlashadi, chunki ularning qonida giperviskozlik va tromb hosil bo'lishi kuchayadi. Tromboz rivojlanishiga ko'plab omillar sabab bo'ladi: qandli diabet, arterial gipertoniya, ateroskleroz, yurak ritmi buzilishi (ayniqsa, atrial fibrillyatsiya), semirish, chekish va alkogol iste'moli. Qandli diabet qon tomir devorlariga zarar yetkazib, tromboz shakllanishini tezlashtiradi, arterial gipertoniya esa qon tomir devorlarining elastikligini kamaytiradi. Ateroskleroz natijasida yog'li blyashkalar tomir lumenini toraytiradi, yurak ritmining buzilishi esa yurak bo'shliqlarida tromb hosil bo'lishiga olib keladi. Shu bilan birga, COVID-19 o'tkazgan bemorlarda endotelial yallig'lanish va mikrotrombozlar rivojlanib, insult xavfini bir necha baravar oshiradi. Trombozning bu kabi holatlarda o'z vaqtida aniqlanishi va davolashning erta boshlanishi katta ahamiyatga ega. Diagnostika uchun D-dimer, fibrinogen, CRP kabi laborator ko'rsatkichlar va neyrovisualizatsion usullar — MRI yoki MR-venografiya qo'llaniladi. Profilaktika chorolari

sifatida antikoagulyantlar (heparin, varfarin), antitrombotsitar preparatlar (aspirin, klopidogrel) va qon bosimini me'yorda ushlab turish tavsiya etiladi. Xulosa qilib aytganda, kavernozi sinus trombozi postkovid davrida insult rivojlanishining asosiy xavf omillaridan biri bo'lib, ushbu holatni erta aniqlash va kompleks davolash choralari bemorlarning hayot sifatini yaxshilash va o'lim holatlarini kamaytirishning muhim omilidir.

Turli xil etiopatogenezli kavernozi sinus trombozining insult rivojlanishiga bo'lgan ehtimolini va ta'sirini o'rganish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar postkovid sindromdan keyingi tromboz va insult o'rtasidagi patofiziologik bog'liqlikni chuqur o'rganmoqda. Boymuradov Sh.A. va hammualliflarining tadqiqotida COVID-19 o'tkazgan 256 nafar bemorda kavernozi sinus trombozining yuz-jag' sohasidagi klinik oqibatlarini tahlil qilingan bo'lib, natijalarda 73 % holatda venoz sinuslar kengayishi va ishemik o'zgarishlar qayd etilgan [2]. Ushbu holatlar virusli infeksiya natijasida endotelial disfunktsiya va giperviskozlik bilan bog'liqligi aniqlangan. Rustamova D.A. va hamkasblarining tadqiqotida (2022) MTHFR genining polimorfizmi trombozga moyillikni oshirishi ko'rsatilib, genetik predispozitsiya COVID-19 bilan og'rikan bemorlarda asoratlar xavfini kuchaytirishi isbotlangan [5].

Adams R.D. va Victor M. (2014) o'zlarining klassik "Principles of Neurology" asarida ishemik insultning asosiy sababi tromboembolik jarayonlar ekanini, xususan, venoz sinus trombozining markaziy asab tizimi qon aylanishida 10–15 % holatda uchrashini ta'kidlaydilar [6]. Shu bilan birga, Go A.S. va Mozaffarian D. (2014) tomonidan yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bo'yicha o'tkazilgan metaanalizda COVID-19 pandemiyasi davrida tromboz bilan bog'liq insultlar sonining keskin oshgani qayd etilgan [7].

Kurbonov Yo.X. (2022) o'z dissertatsiyasida COVID-19 bilan og'rikan bemorlarda yuz-jag' sohasidagi nekrotik jarayonlarning klinik-genetik xususiyatlarini o'rganib, ko'pchilik bemorlarda kavernozi sinus trombozi va tromboembolik asoratlar kuzatilganini ta'kidlaydi [1]. Bu esa virus infeksiyasi fonida endotelial hujayralarning shikastlanishi va gemostaz tizimi disbalansi mavjudligini ko'rsatadi. Boymuradov Sh.A. (2021) tomonidan olib borilgan klinik kuzatuvlarda esa COVID-19dan keyingi bemorlarda D-dimer darajasi normadan 2–4 barobar yuqoriligi aniqlangan bo'lib, bu miya qon aylanishi buzilishlari uchun xavf indikatoridir [4].

Easton J.D. va Saver J.L. (2009) tomonidan ishlab chiqilgan "Stroke Evaluation Standards" bo'yicha ilmiy tavsiyalarda trombozning erta aniqlanishi va trombolitik terapiyaning dastlabki 3–4,5 soatda qo'llanishi insult oqibatlarini 30–40 % ga kamaytirishini ko'rsatadi [8]. Shu jihatdan, Boymuradov va Kurbonovlarning izlanishlari natijalari ham ushbu global ilmiy tendensiyani tasdiqlaydi — ya'ni postkovid bemorlarda trombozning erta tashxisi va davosi hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Umuman olganda, tahlil qilingan manbalar postkovid davrda kavernozi sinus trombozi miya qon aylanishi buzilishining yetakchi etiologik omili sifatida qaralishi lozimligini, D-dimer, fibrinogen va CRP kabi laborator ko'rsatkichlarning diagnostik ahamiyati yuqoriligini va zamonaviy antikoagulyant terapiya bu xavfni kamaytirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

2020–2024 yillarda Toshkent Tibbiyot Akademiyasining ko'p tarmoqli klinikasining otorinolaringologiya va yuz-jag' jarrohligi bo'limida yotib davolangan 204 nafar bemor tahlil qilindi. Shundan 116 nafari erkaklar (56,8 %) va 88 nafari ayollar (43,2 %) bo'lib, ular kompleks tekshiruvlardan o'tkazildi. Barcha bemorlardan zarur qon tahlillari olindi hamda bosh miya MSKT-angiografiyasi arterial va venoz qon tomirlarni kontrast modda (yodolipol) vena ichiga yuborish orqali o'tkazildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Kavernozi sinus trombozi bilan og'rikan bemorlarda laborator tekshiruvlar o'tkazildi. Ushbu tekshiruvlar natijalariga ko'ra, D-dimer va fibrinogen ko'rsatkichlari me'yorga nisbatan ancha yuqori ekanligi aniqlandi. Tadqiqotga olingan barcha bemorlarning COVID-19 bilan og'rikanligi va shundan so'ng tromboz shakllanganligi ma'lum bo'ldi. Asosiy guruhdagi bemorlarning 89 % II tip qandli diabet bilan og'rikan bo'lsa, 11 % bemorlarda esa somatik hamroh kasalliklar aniqlanmadi. Shu bilan birga, qon tahlillarida prokalsitonin, leykotsitlar, ECHT, revmatoid faktor, C-reaktiv oqsil va ferritin ko'rsatkichlarining miqdori ham me'yordan ancha yuqori ekanligi qayd etildi.



1-jadval. Kavernoz sinus trombozi bilan og'riqan bemorlarning laborator ko'rsatkichlari (asosiy va nazorat guruhlari taqqoslanmasi)

Ko'rsatkichlar	Asosiy guruh (n=160)	Nazorat guruhi (n=44)
Leykotsitlar miqdori (109/l)	11,85±0,40	5,2±3,8
ECHT (mm/soat)	22,8±1,25	6,0±3,1
Fibrinogen	667,03±16,52	326±14,32
Glyukoza	12,7±0,49	5,4±0,24
Revma faktor	20,11±0,58	10,1±0,34
C-reaktiv oqsil	28,13±2,35	4,7±0,15
D-dimer	431,8±12,2	214,35±7,41
Ferritin	670,9±35,9	126,1±26,32

Asosiy guruh bemorlarni qon tahlillaridan keyin R-kontrast dori vositasini yuborishga qarshi ko'rsatma aniqlanmagan keyin 103 nafar bemorda MRT-angiografiya bosh miya qon tomirlarini va sinuslarini (yodolipol bilan) arterial va venoz fazada tekshirilganda kavernoz sinus atrofidagi venoz qon tomirlarini kengayishi va shakli buzilishi, bazi bemorlarda esa tugunlanish xolatlarini aniqlandi.



1-rasm. MRT-Angiografiya

Profilaktika va davolash: Tromboz va insultning oldini olish, shuningdek ularning asoratlarini kamaytirish uchun kompleks yondashuv zarur bo'lib, bu yondashuv farmakologik, parhez va hayot tarziga oid omillarni o'z ichiga oladi. Profilaktikaning asosiy maqsadi — qon aylanish tizimining barqarorligini saqlash, tromboz shakllanishiga sabab bo'luvchi omillarni bartaraf etish va miya to'qimalarining yetarli darajada kislorod bilan ta'minlanishini ta'minlashdan iborat.

Birinchidan, arterial qon bosimi va xolesterin darajasini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Gipertoniya va dislipidemiya tromboz shakllanishining asosiy xavf omillaridan biri bo'lib, ularni me'yorda ushlab turish tomir devorlarining barqarorligini ta'minlaydi va aterosklerotik blyashkalar hosil bo'lishining oldini oladi. Ushbu maqsadda antikoagulyantlar (heparin, varfarin, dabigatran), antitrombotsitar vositalar (aspirin, klopidogrel),

ferment preparatlar (streptokinaza, urokinaza), trombolitik vositalar, antioksidantlar hamda tomir devorini mustahkamlovchi vositalar bemorning yoshi, tana vazni va umumiy holatiga qarab dozalanadi. Ularning qo'llanilishi qon quyqalari hosil bo'lishining oldini olib, qon oqimini yaxshilaydi hamda miya to'qimalarining perfuziyasini tiklashga yordam beradi.

Ikkinchidan, qon glyukoza darajasini me'yorda ushlab turish ham trombozning oldini olishda katta ahamiyatga ega. Diabet bilan og'riqan bemorlarda glyukoza ortiqchiligi endotelial disfunktsiyani kuchaytiradi, bu esa tromboz va ishemik insult rivojlanishiga zamin yaratadi. Shu bois, diabetik bemorlarga glyukozani muntazam nazorat qilish, shifokor tavsiyasiga muvofiq dori vositalarini qabul qilish va past glikemik indeksli mahsulotlardan iborat parhez tutish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, sog'lom turmush tarzi va jismoniy faollik insultning oldini olishda eng muhim omillardan biridir. Muntazam jismoniy mashqlar qon aylanishini yaxshilaydi, qon bosimini me'yorda ushlab turadi va lipid almashinuvini normalashtiradi. Shuningdek, zararli odatlardan — chekish va alkogol iste'molidan voz kechish, to'g'ri ovqatlanish (ko'proq sabzavot, meva, baliq mahsulotlari, to'yintirilmagan yog' kislotalar) qon tomir devorlarining elastikligini oshiradi va endotelial sog'lomlikni saqlaydi.

Ishemik insult rivojlangan holatlarda tezkor trombolitik terapiya qo'llanilishi muhim ahamiyatga ega. Trombolitik preparatlar (masalan, alteplaza, tenekteplaza) tomir ichida hosil bo'lgan tromblarni eritib, miya qon aylanishini qayta tiklash imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, trombolitik terapiya insult boshlanganidan keyingi dastlabki 3–4,5 soat ichida qo'llanilganda eng yuqori samarani beradi. Shuningdek, antikoagulyant va antitrombotsitar terapiyani o'z vaqtida boshlash, qon bosimini barqarorlashtirish, kislorod bilan ta'minlash va reabilitatsiya choralarini insultdan keyingi asoratlarni kamaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, tromboz va ishemik insult profilaktikasi tizimli nazorat, sog'lom turmush tarzi, parhez, farmakologik terapiya va muntazam tibbiy kuzatuvni talab etadi. Ushbu omillarning uyg'un qo'llanilishi insultning qaytalanish xavfini kamaytiradi, bemorlarning nevrologik tiklanishini tezlashtiradi va umr sifatini yaxshilaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bemorlarda trombozning shakllanishi va uning asosida bosh miya o'tkir qon aylanishining buzilishi bilan kasallanishi COVID-19 bilan og'rish bilan bilvosita bog'liq bo'lib, ishemik insultning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, chunki u bosh miya tomirlarida qon oqimini to'xtatib, kislorod yetishmovchiligiga va to'qimalarning shikastlanishiga olib keladi. Trombozning rivojlanish mexanizmlarini va insultning xavf omillarini tushunish samarali diagnostika, profilaktika va davolash usullarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Xavf omillarini nazorat qilish va zamonaviy davolash usullari yordamida insultning oldini olish hamda bemorlarning sog'lig'ini yaxshilash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Kurbonov Yo.X., "Covid-19 bilan og'riqan bemorlarda yuz-jag' soxasining nekrotik jarayonlarini klinik-genetik hususiyatlari" – Dissertatsiya, 2022.
2. Boymuradov Sh.A., Bobamuratova D.T., Rustamova D.A., Kurbanov Yo.Kh. Radiographic and Clinical Analysis of Cranio- Maxillofacial Complications of Cavernous Sinus Thrombosis Among 256 COVID-19 Patients // The Journal of Craniofacial Surgery, 2022, Volume 33, Number 5, pgs. 1549-1553 (Scopus)
3. Boymuradov Sh.A., Rustamova D.A., Yusupov Sh.Sh., Karimberdiev B.I., Umarov R.Z., Kurbonov Yo.Kh. Complications of COVID-19 in the maxillo-facial region: Clinical case and review of the literature // Advances in Oral and Maxillofacial Surgery. – 2021. – T. 3. – C. 100091 (14.00.00)
4. Boymuradov Sh.A., Rustamova D.A., Bobamuratova D.T., Kurbonov Yo.Kh., Umarov R.Z. COVID-19 o'tkazgan bemorlarda kavernoziy sinus trombozi klinik kechishi va oqibatlari // Stomatologiya nauchno-prakticheskiy zhurnal, №4 (85), 2021r., str.88-95 (14.00.00; №12)
5. Rustamova D.A., Maxmadaliyeva D.O., Djurayev J.A., Yusupov Sh.Sh., Kurbonov Yo.X. Yuz jag' sohasida COVID-19dan keyingi asoratlar bo'lgan bemorlar MTHFR genida rs1801133 polimorfizmi chastotasining qiyosiy tahlili // Toshkent tibbiyot akademiyasi axborotnomasi, ISSN2181-7812, 2022, maxsus son, 24-26 (14.00.00; №13)
6. Adams R.D., Victor M. Principles of Neurology. 10th ed. New York: McGraw-Hill; 2014.
7. Go A.S., Mozaffarian D., Roger V.L. va boshqalar. Executive summary: heart disease and stroke statistics—2014 update. Circulation. 2014;129(3):399-410.
8. Easton J.D., Saver J.L., Albers G.W. va boshqalar. Definition and evaluation of transient ischemic attack: a scientific statement for healthcare professionals from the American Heart Association/American Stroke Association. Stroke. 2009;40(6):2276-2293.

TIBBIYOT

TA'LIMI & INNOVATSIYALARI

2025. № 2

Muharrir: Sherzod Qurbonov

Mas'ul kotib: Surmaniso Mirzaliyeva

Dizayner: Zokir Alibekov

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Tibbiyot ta'limi va innovatsiyalari" ilmi elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @munis_sm

Tel.: 97 748 70 03

"Tibbiyot ta'limi va innovatsiyalari" ilmi elektron jurnali 29.04.2025-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan C-5669801 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. Litsenziya raqami: №745444.



